


# SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)






*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida, 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida)



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar oyida, birlikda)






# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)




Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **16,7** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish  
 ■ O‘rmon xo‘jaligi  
 ■ Baliqchilik xo‘jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,2** foizga kamaydi.



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**101**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**2 034**

Ishlab chiqarish sanoati

**17**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**40**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 2 192 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 % ga kamaydi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini kamayishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 0,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,8 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 1,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 55,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,8 %) kamayganligini, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 2,1 marta (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %) ko'payganligini ko'rish mumkin.




# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,0 foizga oshdi**




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**1,9 foizga oshdi**



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



**4,9 foizga oshdi**




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



**14,3 foizga oshdi**



## Xususiy korxonalar




**11,4 foizga kamaydi**






# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)







Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 405 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga yoki 0,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 338 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 taga yoki 4,0 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 3 tani tashkil etganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 12 916 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 389 taga yoki 12,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 460 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 733 taga yoki 6,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 142 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga yoki 5,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra 229 tani tashkil etib, ulardan 212 tasi yoki 92,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 36 taga yoki 18,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2023- yilning yanvar oyida Sirdaryo viloyatida 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




**Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 foizga kamaydi.**




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



### Mikrofirmalar



### Kichik korxonalar






# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

13




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
<b>Jami</b>	<b>112</b>	<b>158</b>	<b>186</b>	<b>185</b>	<b>212</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	8	12	18	18	28
Sanoat	77	100	115	114	117
Qurilish	7	10	12	14	16
Savdo	11	24	26	24	28
Tashish va saqlash	4	6	4	5	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	1	1	-	3
Axborot va aloqa	-	2	2	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa turlar	4	3	8	9	13

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)





# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


15

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Sirdaryo viloyati	212	112	100
Guliston sh.	49	24	25
Yangiyer sh.	23	9	14
Shirin sh.	5	4	1
Oqoltin	6	2	4
Boyovut	10	4	6
Sayxunobod	13	9	4
Guliston	9	3	6
Sardoba	10	7	3
Mirzaobod	24	11	13
Sirdaryo	55	36	19
Xovos	8	3	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 55 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 25,9 %), Guliston shahrida 49 ta (23,1 %), Yangiyer shahrida 23 ta (10,8 %), Mirzaobod tumanida 24 ta (11,3 %) hamda Sayxunobod tumanida 13 tani (6,1 %) tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan 18 701 ta korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (27,0 %), Yangiyer shahri (6,8 %), Shirin shahri (2,6 %), Sirdaryo (13,8 %), Sayxunobod (7,7 %), Boyovut (8,3 %), Guliston (7,5 %), Mirzaobod (8,6 %), Oqoltin (6,1 %), Xovos (5,6 %), Sardoba (6,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2023- yilning yanvar oyida, birlikda)

2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan 148 ta korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Guliston shahri (27,7 %), Yangiyer shahri (4,7 %), Shirin shahri (2,7 %), Sirdaryo (12,2 %), Sayxunobod (19,6 %), Boyovut (4,7 %), Guliston (2,7 %), Mirzaobod (6,1 %), Oqoltin (4,1 %), Xovos (8,1 %), Sardoba (7,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 11 460 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (24,9 %), Yangiyer shahri (7,5 %), Shirin shahri (2,5 %), Sirdaryo (14,8 %), Sayxunobod (8,1 %), Boyovut (7,8 %), Guliston (6,8 %), Mirzaobod (8,8 %), Oqoltin (6,6 %), Xovos (5,7 %) va Sardoba (6,5 %) tumanlari hissalariga tegishli.



## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

18



O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namayon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar bo'yicha soni



(2023- yilning yanvar oyida, birlikda)



2023- yilning yanvar oyida, yangi tashkil etilgan 3 ta oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (33,4 %), Guliston (33,3 %), Sayxunobod (33,3 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2023-yilning yanvar oyida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



The screenshot displays the website of the Sirdaryo Region State Statistical Service. The header includes the national emblem, the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI', contact numbers '(67) 236-70-00 - Murojaat uchun' and '(67) 236-86-15 - Ishonch telefoni', and the UZSTAT logo. The main navigation bar contains 'BOSHQARMA HAQIDA', 'OCHIQ MALUMOTLAR', 'NASHRLAR', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The 'INTERAKTIV XIZMATLAR' dropdown menu is open, listing options like 'XIZMATLAR RO'YXATI', 'ELEKTRON HISOBOT', 'KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G'RSIDA MA'LUMOT', 'USLUBIY MATERIALLAR', 'STATISTIK KLASSIFIKATSIYALAR', 'TAQDIM ETILADIGAN HISOBOTLAR RO'YXATI', and 'KORXONA PASPORTI'. The main content area features several statistics cards: 'YALPI HJUDUDIY MAHSULOT 105,7%', 'SANOAT 110,4%', 'YUK AYLANMASI 110,8%', 'YO'LOVCHI AYLANMASI 103,5%', 'QURILISH ISHLARI 100,9%', and 'DOIMIY AHOLI SONI 887,085'. A 'Mobil versiyasi' link is visible in the bottom right. Below the navigation bar, the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI' is repeated. The main heading is 'Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot'. The form includes a text input for 'STIR kodini kiriting', a button for 'Agar tushunarsiz bo'lsa, rasmni bosing' with a QR code, another text input for 'Rasmdagi kodini kiriting', and an 'Ochish' button. The footer contains 'O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi 2022 yil'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining [www.sirstat.uz](http://www.sirstat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**